



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## ARAB TILIDA YORDAMCHI FE'LLARNI TUTGAN O'RNI

**Nosirjonov Muhammadamin Sunnatjon o'g'li**

*Alfraganus universiteti*

*2-kurs arab filologiyasi talabasi*

**Tursunaliyeva M.A.**

*Ilmiy rahbari:*

Darhaqiqat, arab tilida gaplar ikki turga bo'linadi: ismiy (ot kesimli) gaplar "الجملة الاسمية" va fe'liy gaplar "الجملة الفعلية". Arab tilida ism bilan boshlangan gaplar - ismiy gap "الجملة الاسمية" deyiladi. Ismiy gaplar "الجملة الاسمية" ning asosi ikki qismdan tashkil topadi: ega "المبتدأ" va kesim "الخبر". Arab tilida fe'l bilan boshlangan gaplar fe'liy gaplar "الجملة الفعلية" deyiladi. Fe'liy gaplar "الجملة الفعلية" ning asosi ikki qismdan tashkil topadi: kesim(fe'l) "الفعل" va ega (fail) "الفاعل".

"كان وأخواتها" yordamchi fe'llari ismiy gaplar "الجملة الاسمية" ning boshida kelib, bu fe'llar gaplarda tugallangan ma'noga ega bo'lishi uchun, xabarga muhtoj bo'ladi, shu jihatidan yordamchi fe'llar "الأفعال الناقصة" ga aylanadi.

"كان وأخواتها" yordamchi fe'llari ismiy gaplar "الجملة الاسمية" ning boshiga qo'shilganda, ismiy gaplarning ega(mubtado) "المبتدأ" va kesimi(xabar) "الخبر" ni ham nomlanishini, ham e'robini "o'zgartiradi. Shu jihati bilan "كان وأخواتها" yordamchi fe'llari "bekor qiluvchi fe'llar"(af'alu nasixa) "الأفعال الناقصة" deb ham ataladi. Masalan: "كان واخواتها" o'n uchta fe'l bo'lib, ular quyidagilardir:

كان وأصبح وأضحى وظل وأمسى وبات وصار وليس وما زال وما انفك وما قفى وما يرخ وما دام

Ma'lumki, ismiy gaplar "الجملة الاسمية" ega "المبتدأ" va kesim "الخبر" dan tashkil topgan bo'lib, ega ham, kesim ham bosh kelishik "الرفع" da keladi. Lekin bu yordamchi fe'llar ismiy gaplar tarkibida kelganida, bu gaplarning raf' holatida ya'ni bosh kelishik "الرفع" da saqlab qolib, kesimini esa nasb holati "النصب" da ya'ni tushum kelishigida kelishini talab qiladi. Masalan: Ob-havo sovuq. الجو بارد

Ismiy gaplar egasi "الجو" bosh kelishikda, kesimi "بارد" ham bosh kelishikda. Bu gaplarga "كان وأخواتها" yordamchi fe'llaridan biri qo'shilganda, masalan: Ob-havo sovuq edi. "كان الجو باردا"

Ismiy gaplarning egasi, "اسم (كان)" deyilib bosh kelishik "مرفوع" da keladi, kesimi "منصوب" da keladi. Bunda o'tgan zamonda ekanligini ko'rsatmoqda. "كان (اسم) خبر (كان)" deyilib tushum kelishigi "منصوب" da keladi.

صار الماء ثلجا - سuv muzga aylandi.

ليس الذرس صعبا . - Dars qiyin emas.

ما زال الطفل نائما . - Bola haligacha uxlayapti (uxlashda davom etyapti)

أمست السماء ممطرة . - Osmon yomg'irli bo'la boshladi

بظل العامل مكبا على عمله . - Ishchi o'z ishiga o'ralib ketdi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



kabi gaplarga " صار " , " ليس " , " ما زال " , " أمسى " va " ظل " kirishidan avval, quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

على عمله الماء تلج . الدرس صعب . الطفل نائم . السماء ممطرة . العامل مكب .

"yordamchi fe'l sifatida ma'nolari

1. " كان " - bo'lmoq, o'tgan va kelasi zamondagi ish-harakatni ifodalaydi. " كان " yordamchi fe'l sifatida o'zbek tiliga edi bo'lmoq kabi shakllarda tarjima qilinadi. Masalan: " كان هـاـو تـنـدا شـامـولـي عـدي ، كـنـدـوزـي عـلـيـق بـو'لـادي .

كان امتحان سهاد . - . Imtixon oson bo'ldi .

كانت الحديقة نظيفة . - Bog' toza edi .

كان fe'li ba'zan, ayniqsa Alloh lafzining boshida kelganda doimiylikni ifoda etadi va o'zbek tiliga " -dir" qo'shimchasi bilan tarjima qilinadi.

Masalan: ( وكان الله غفورا رحيمًا ) - Alloh mag'firat qiluvchi va rahimli Zotdir"

2. " أصبح " - ertalab bajarilgan ish-harakatini bildiradi. " أصبح " yordamchi fe'l bo'lib kelganda, bo'lmoq , -lashmoq kabi ma'nolarida keladi.

Masalan: أصبح الجو معتدلا في الربيع . - Bahorda havo iliq bo'ladi .

أصبح المريض نشيطا . - Kasal kishi faollashdi .

3. " أضحى " - choshgohda bajarilgan ish-harakatini bildiradi. " أضحى " yordamchi fe'l sifatida, bo'lmoq, bo'lib qolmoq kabi ma'nolarida keladi.

Masalan: أضحى الفادح تعبًا . - Dehqon charchab qoldi .

4. " ظل " - kun bo'yi bajarilgan ish-harakatini davom etganini ifodalaydi. " ظل " yordamchi fe'l bo'lganda, o'zbek tiliga bo'lmoq, -dir, hali kabi shakllarda tarjima qilinadi.

Masalan:

ظل محمود وفيًا صدقائه . - Mahmud do'stlariga ( doim) vafolidir .

ظأت العجوز على قيد الحياة . - Qari xotin hali yashayapti (tirik) .

5. " أمسى " yordamchi sifatida, bo'lmoq ma'nosida keladi. Masalan:

أمسى الجو حارا . - Havo issiq bo'ldi .

أمسى الامر واضحا . - Ish aniq bo'ldi .

6. " بات " yordamchi fe'l bo'lib kelganda, bo'lmoq ma'nosida keladi. Masalan:

بات السائق قلقا . - Haydovchi xavotirda bo'ldi (xavotirlandi) .

بات المعتدى قلقا حتى الصباح . - Hujum qiluvchi tonggacha notinch bo'ldi .

7. " صار " - bo'lib qolmoq, aylanmoq. " صار " yordamchi fe'l bo'lib kelganda, bo'lmoq , -lashmoq, bo'lib qolmoq kabi ma'nolarida keladi. Masalan: Narxlar ko'tarildi. - الاثمان مرتفعة - صارت

صار العنب زيبيا . - Uzum mayiz bo'lib qoldi .

Bilinki, sizlar hijratdan so'ng arab bo'ldingiz. - اعلموا أنكم صرتم بعد الهجرة أعرابيات

8. " ليس " - fe'li holatdagi (holdagi) inkorni ifodalaydi. " ليس " yordamchi fe'li o'zbek tiliga emas shaklida tarjima qilinadi. Masalan:

ليس التواضع ضعفا . - Kamtarlik zaiflik emas .





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



"ليس جلوسك هكذا مناسيا" - Sening bunday o'tirishing munosib emas .

ممكن. ليسfe'li gaplar tarkibida qo'llanilganda, uning xabariga "ب" ko'makchisi ham orttirilishi

Ishonch hosil qilish uchun mendan shubha ketmadi. لست بأمضى الشك منى على اليقين

9. "ما زال" - to'xtamaslik, davom etmoq. "ما زال" davomiylik fe'llaridan (أفعال الاستمرار) biri bo'lib, hali, hanuz, davom etmoq ma'nosida tarjima qilinadi. Masalan:

. فursat yaxshi bo'lishda davom etdi. - ما زالت الفرصة مؤاتية .

. Yurtimizda hanuz xursandchilik avj o'lmoqda. - يزال الأفراح فى ديارنا عامرة .

10. "ما انفك" - to'xtamaslik, davom etmoq. "ما انفك" davomiylik fe'llaridan (أفعال استمرار) biri bo'lib, hali, hanuz, davom etmoq ma'nosida tarjima qilinadi. Masalan:

. O'quvchi hanuz darslarini yodlamoqda. - انفك التلميذ يستذكر دروسه .

11. "ما فتى" - to'xtamaslik, davom etmoq. "ما فتى" davomiylik fe'llaridan (أفعال الاستمرار) biri bo'lib, hali, hanuz, davom etmoq ma'nosida tarjima qilinadi. Masalan:

. لم ينفك الطفل ييكي. - Bola yig'layverdi (yig'ini to'xtatmadi).

12. "ما برح" - to'xtamaslik, davom etmoq. "ما برح" davomiylik fe'llaridan (أفعال الاستمرار) biri bo'lib, hali, hanuz, davom etmoq ma'nosida tarjima qilinadi. Masalan:

. Mehmonlar hanuz mehmonxonadalar. - ما برح الضيوف غرفة الجلوس .

13. "ما دام" - modomiki ekan. "ما دام" yordamchi sifatida o'zbek tiliga modomiki, hamonki tarzida tarjima qilinadi. Masalan:

. Modomiki kasal ekansan, shifokorga bor. - مادمت مريضا فإذهب إلى طبيب .

. Yomg'ir quysa ham men joyimni hecham tashlab ketmayman. - لن ابرح مكاني ما دام المطر منهم .

Ushbu "yordamchi fe'llarining yordamchi fe'llar sifatida, ismiy gaplar oldida kelganda yuqorida keltirilgan ma'nolarda tarjima qilinadi. Bu fe'llar zamonga dalolat berib, paytni ko'rsatadi.

Mazkur "yordamchi fe'llar turkuniga kiruvchi fe'llarining deyarli hammasi, o'z mustaqil ma'nolariga ega bo'lib, gaplar tarkibida o'z ma'nolarida ham ishlatiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т., 1981.
2. Ҳасанов М., Абзалова М. Араб тили дасрлари /Ўқув қўлланма. – Т., 2016.
3. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Т., 1997.
4. مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. – القاهرة-المنصورة: دار الغد الجديد، 2007.
5. <https://arabic.uz/maqolalar/1584-izofaa.html>



6. Bo'ronov, N. (2024). MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILIY MODUL MEKANIZMI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 454-457.

7. Nazim, B. R. (2022). O 'zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba'zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o 'rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov "Nido" dostonining til xususiyatlari haqida so. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 500-504.

8. Буронов, Н., & Шоғуломов, Д. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.

9. Bo'ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI ASRDA DINIY EKSTREMIZM TAHDIDLARI. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 289-290).

10. Сеитова, З. П. (2023). СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ЖЕНЩИН РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН. ИТМОИЙ FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 83-89.

11. Pirzhanovna, S. Z., & Gulbahar, Z. (2022). Features Of the Formation of a System of Social and Value Orientations of Women. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 1-3.

12. Сеитова, З. (2024). НАЛИЧИЕ ГЕНДЕРНО-УЩЕРБНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ. Academic research in educational sciences, (3), 537-542.

13. Pirzhanovna, S. Z. (2023). SOCIAL TRANSFORMATIONS AND CHANGES IN THE MINDS OF WOMEN. QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES, 1(1), 225-232.

14. Сеитова, З. П. (2023). КОМПОНЕНТЫ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(14), 342-351.

15. ZP, S. (2023). Social Transformations and Changes in The Minds of Women. Journal of Advanced Zoology, 44.

16. Сеитова, З. П. (2021). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. Экономика и социум, (3-2 (82)), 352-355.

17. Pirjanovna, S. Z., & Aytbaevna, S. G. (2020). ECOLOGICAL ISSUES IN THE PHILOSOPHICAL THEORIES OF KARAKALPAK THINKERS. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 4206-4212.

18. Сеитова, З. П. ВОПРОСЫ САМОИДЕНТИФИКАЦИИ ЖЕНЩИН В СОЦИОЛОГИЧЕСКОМ ИЗМЕРЕНИИ. ИLM SARCHASHMALARI, 185. Pirjanovna, S. Z. (2021). A democratic society is the spokesman for the people's, national will. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1088-1091.